

## YASHIL MOLİYALASHTIRISH VA KORPORATIV EKOLOGIK JAVOBGARLIK.

**Mirzakulova Risolat Musurmankulovna**

**TerDPI o'qituvchisi.**

**Omonova Shakar Jumanazar qizi**

**TerDPI Tabiiy va aniq fanlar fakulteti Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.**

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqola O'zbekistondagi moliyaviy institutlar tomonidan amalga oshirilayotgan yashil moliyalashtirish va korporativ ekologik javobgarlik (KEJ) strategiyalarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda yashil moliyalashtirishning iqtisodiy va ekologik samaradorligi, shuningdek, bu jarayonning xalqaro KEJ tamoyillariga mosligi o'rganilgan. Tadqiqot doirasida sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo'llanilib, O'zbekistondagi moliyaviy institutlarning rasmiy hisobotlari va GEFF dasturi ma'lumotlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Yashil iqtisodiyot, moliyalashtirish, korporativ ekologik javobgarlik (KEJ), moliyaviy institutlar, ekologik barqarorlik, GEFF, xalqaro tamoyillar, iqtisodiy samaradorlik.

**АННОТАЦИЯ.** Целью данной статьи является анализ стратегий зеленого финансирования и корпоративной экологической ответственности (КЭО), реализуемых финансовыми институтами Узбекистана. В исследовании рассматривается экономическая и экологическая эффективность зеленого финансирования, а также его соответствие международным принципам КЭО. В исследовании используются качественные и количественные методы анализа, анализируются официальные отчеты финансовых институтов Узбекистана и данные программы GEFF.

**Ключевые слова:** Зеленая экономика, финансы, корпоративная экологическая ответственность (КЭО), финансовые институты, экологическая устойчивость, GEFF, международные принципы, экономическая эффективность.

**ABSTRACT.** This article is aimed at analyzing the green finance and corporate environmental responsibility (CER) strategies implemented by financial institutions in Uzbekistan. The study examines the economic and environmental efficiency of green finance, as well as its compliance with international CER principles. The study uses qualitative and quantitative analysis methods and analyzes official reports of financial institutions in Uzbekistan and data from the GEFF program.

**Keywords:** Green economy, finance, corporate environmental responsibility (CER), financial institutions, environmental sustainability, GEF, international principles, economic efficiency.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PK-436-son qarori bilan O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish maqsadlari belgilandi. Mazkur Qarorga “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘tishni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish borasida aniq maqsadlar belgilangan.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tish, yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha bir qator choralar ko‘rilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 561-son Qaroriga muvofiq 2024-yil 1-oktabrga qadar “yashil” obligatsiyalar va kreditlar, shuningdek, boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan “yashil” turdagi loyihalarni tasniflash tajriba tariqasida Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi orqali amalga oshirilishi hamda davlat moliyaviy ko‘magidan (subsidiyalar, grantlar, kredit liniyalari, kafolatlar va boshqalardan) foydalangan barcha tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan, xususiy va davlat ishtirokidagi xo‘jalik birlashmalarining investitsiyaviy xarajatlari Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi asosida tasniflanadi hamda ular tomonidan mas‘ul respublika ijro etuvchi hokimiyat organiga ma‘lumotlar taqdim etish tartibi joriy etilishi belgilangan.

Ushbu tadqiqotda yashil moliyalashtirish va korporativ ekologik javobgarlik masalalari O‘zbekiston moliyaviy institutlari tajribasi asosida o‘rganilgan va bu jarayonda banklar asosiy vazifani bajaradi. Chunki, banklar ekologik standartlarga mos loyihalarni moliyalashtirish orqali korxonalarining ekologik javobgarligini oshirishga hissa qo‘shadi. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini samarali boshqarish kabi loyihalarga mablag‘ ajratadi. Yashil obligatsiyalar chiqarish orqali esa barqaror moliyaviy tizim yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular investorlarga ekologik mezonlarga asoslangan moliyaviy mahsulotlarni taklif etish orqali yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtiradi. Yurtimizda bir nechta banklar yashil moliyalashtirish yo‘nalishida faoliyatini yo‘lga qo‘ygan, jumladan, **Kapitalbank:** “Yashil Makon” milliy ekologik

loyihasini qo‘llab-quvvatlab, 2024-yilda 40 mingdan ortiq daraxt ekish va havo sifatini nazorat qiluvchi datchiklar o‘rnatish kabi tadbirlarni amalga oshirdi. **Trastbank:** Jismoniy va yuridik shaxslar uchun “Yashil moliyalashtirish” iste‘mol kreditini taklif etadi. Bu kreditlar quyosh panellari va energiya tejamkor uskunalarni sotib olish va o‘rnatish uchun mo‘ljallangan. **O‘zsanoatqurilishbank:** Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etib, yashil loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda. Bank Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining “Yashil moliyalashtirish yo‘nalishidagi eng yaxshi loyiha” sovriniga sazovor bo‘lgan” .

**Ekologik javobgarlik** – bu insonlarning o‘z faoliyatlari natijasida atrof-muhitga keltiriladigan ta‘sirni anglab, uni kamaytirishga qaratilgan harakatlardir. Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotida katta rol o‘ynaydi. Ular turli mamlakatlarga mablag‘ ajratish va kredit berish bilan shug‘ullanadilar, jahon savdosini rivojlantirish va moliya tizimini barqarorlashtirishga yordam beradilar.

**Xalqaro moliya tashkilotlari (XMT)** - xalqaro moliya sohasida davlatlararo (xalqaro) bitimlar asosida tashkil etilgan institutlardir. **2008 yilda tashkil topgan Moliyaviy ommaboplik al‘yansining (MOA)** maqsadi moliyaviy ommaboplik bo‘yicha samarali siyosatni amalga oshirish orqali moliyaviy resurslardan foydalana olmaydiganlar uchun tegishli moliyaviy xizmatlar sifatini va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirishdan iborat. Dunyoning 95 rivojlanayotgan mamlakatlarning tartibga soluvchi moliyaviy tashkilotlarini birlashtiradi. Al‘yans davlat moliyaviy tizimining iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan muhim siyosiy sohalarda a‘zo mamlakatlarga grantlar va texnik yordam ko‘rsatadi.

Yashil kreditlash va imtiyozli moliyalashtirish tomonidan solishtirilganda ham Sanoatqurilishbank asosiy kreditlarini yirik loyihalarga ajratmoqda, bu esa kichik biznesning ekologik barqarorlikka o‘tishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bunda O‘zbekiston bank sektorida yashil moliyalashtirish hajmini oshirish va xalqaro moliyaviy institutlarning tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

2019-yil 30-oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5863-sonli farmonida: “...atrof muhit obyektlarini (atmosfera havosi, suv, tuproq, yer qa‘ri, bioxilma-xillik, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar) antropogen ta‘sir hamda boshqa salbiy ta‘sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta‘minlash; ekologik jihatdan eng kam xavf tug‘diruvchi materiallardan, mahsulotlardan, ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlardan ustuvor darajada foydalanish; qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish; zaharli

kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta'minlash; chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishning ekologik xavfsiz tizimini takomillashtirish; aholining ekologik madaniyatini shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining shaffoflik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish..."kabi muhim masalalarning yechimi o'z aksini topgan. Darhaqiqat, "eng muhim masala aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin"-deya ta'kidlaganlar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Ta'kidlash joizki, ekologik javobgarlik quyidagi ikki turga bo'linadi: 1)Ekologik-iqtisodiy javobgarlik; 2)Ekologik-huquqiy(yuridik) javobgarlik.

**Yashil moliyalashtirish va korporativ ekologik javobgarlik** — bu atamalar zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun muhim konsepsiyalardir. Korporativ ekologik javobgarlik — bu kompaniyalarning o'z faoliyatida ekologik me'yorlarga rioya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka doir majburiyatidir. Uning asosiy yo'nalishlari : energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan enegiyalarga o'tish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, uglerod izini kamaytirish, ekologik sertifikat va hisosbotlar tayyorlash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

- 1.Yashil iqtisodiyot: darslik. A.V.Vaxabov, Sh.X.Hojibakiev va boshqalar. – Toshkent.: “Universitet”,2020.
2. Vaxabov A.V. „Hojibakiev Sh.X. “Yashil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari. “XXI asr: fan va ta'lim masalalari” ilmiy electron jurnali. 2017-yil.
- 3.Mirzakulova Risolat Musurmankulovna “YASHIL MOLIYA VA BARQAROR INVESTITSIYA STRATEGIYALARI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR” MANAGEMENT, MARKETING AND FINANCE INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 3. -158-160, 2025-yil. <https://doi.org/10.5269292>
4. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna “ YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI. THE NEED FOR A TRANSITION TO A GREEN EKONOMY. НЕОБХОДИМОСТЬ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ”. МЕДИЦИНА , ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. – SJF2024= 5.444, 2025-yil.

5. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna , Qodirova Shohista “QISHLOQ XO‘JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH” Международный научный журнал 33(100),часть 1 “Новости образования исследование в XXI веке” Май 2025 .
6. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna, Qurbonboyeva Marhabo Davlatboyevna “YASHIL ENERGETIKA BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA” ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNIVATSION . -166-171 , 2025-yil.
7. Mirzakulova Risolat Musurmankulovna “WAYS OF EFFECTIVI USE OF COCKTAIL RESOURCES IN ECONOMIC NETWORKS” EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND MANAGEMENT STUDIES. - 100-103, 2023-yil. DOI:<https://doi.org/.55640/eijimrms-03-02-19>.
8. Baqirov T. (2021). “Yashil iqtisodiyotga o‘tish : O‘zbekiston tajribasi”. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy jurnali .